

## AN`ANA, ODAT VA MAROSIMLAR

**Naimov Muzaffar Urinovich**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta`lim kafedrası o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`zbek xalqining bebaho qadriyatlari bo`lmish an`analar, odat va marosimlarning hayotimizdagi o`rni, ahamiyati hamda tarixi manbaalarga asoslanib yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** odat, an`ana, qadriyat, marosim, udum, tuyg`u, meros, e`zoz, hashar, iftixor, donishmand, xalq hikmati, fe`l-atvor, avlod, hikmat, urf, ko`zgu.

**Аннотация:** В данной статье на основе исторических источников рассматриваются место, значение и история бесценных ценностей узбекского народа, традиций, обычаев и обрядов в нашей жизни.

**Ключевые слова:** обычай, традиция, ценность, ритуал, предание, чувство, наследие, уважение, хашар, гордость, мудрец, народная мудрость, характер, поколение, мудрость, традиция, зеркало.

**Abstract:** This article discusses the place, importance and history of the invaluable values of the Uzbek people, traditions, customs and rituals in our lives, based on historical sources.

**Keywords:** custom, tradition, value, ritual, tradition, feeling, heritage, respect, hashar, pride, wise man, folk wisdom, character, generation, wisdom, tradition, mirror.

Xalqimiz uzoq asrlardan buyon o`ziga xos va xilma-xil urf-odatlar, an`analar va marosimlarni yaratdi. Xalqchil odatlar zamonlar osha davr sinovlariga bardam berib, avloddan avlodga o`tib kelmoqda. Har bir xalqning tarixan tarkib topgan o`ziga xos urf-odat va an`analari e`zozlanib avlodlarga meros qoldiriladi. Shu tariqa avlodlar an`analarni davom ettirib, ularning barqarorligini ta`minlaydilar. An`ana, urf-odat va marosimlarimiz tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo`lib, xalqning yashash sharoiti, muhiti natijasida bujudga kelgan. Qadimdan an`ana bo`lib kelgan hashar, mehmondo`stlik, kattalarni hurmar qilish va bir qancha odatlar, marosimlar jamoaning qatnashuvida o`tgan.

[1] (538-b).

Xalqimiz an`ana, odat va marosimlari naqadar ranginu serjilo. Ertagu afsonalari, qo`shig`u o`yinlarida quvnoqlik hazinlikning, dilbarlik bilan purhikmatlikning qorishiqligi-chi! Bular barchani o`zini bilgan har bir jonda milliy iftixor tuyg`usini uyg`otmay qo`ymaydi.[2] (3 -bet).

Xalq an`analari -uzoq taraqqiyot jarayonida xalqning madaniy-marifiy tafakkuri ijtimoiy-ma`naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog`liq holda avloddan-avlodga o`tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikrlari, orzu-o`ylari, tajribalarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy madaniy merosdir.[3] (92 -b).

“Xalq”- soʻzi keng maʼnodagi odamlar jamoasini, muayyan mamlakat yoki hududning barcha aholisini bildiradi. Shuningdek, u tarixiy birlikning turli shakllari (masalan, qabila, elat, millat)ni ham qamrab oladi. Xalq tushunchasi til, madaniyat, urf-odatlar va boshqa jihatlar bilan birga bogʻlangan insonlar yigʻindisini ifodalaydi.[4]

Anʼana-tarixiy xarakterga ega. Inson qancha qadimiy boʻlsa, uning anʼanalari ham shuncha qadimiydir. Anʼana xalq ildizi, xalq tarixi, millat qiyofasi. Anʼanalarning bunyodkori, saqllovchi va yoqllovchisi-tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi-xalq ommasi hisoblanadi. Anʼanalar turmush talabidan tarixiy zaruratdan kelib chiqqan. Anʼanalarda xalq donishmandligi, xalq hikmatlari, xalqal-idroki oʻz ifodasini topgan. [5] (87-b).

Anʼana-tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros boʻlib oʻtadigan, kishilar maʼnaviy hayotida taʼsir koʻrsatadigan madaniy hodisadir. Anʼana oʻziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singan, ( umum yoki maʼlum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmua hisoblanadi.[6] (92-b)

Odat ( urf-odat)-kishilarning turmushiga singib ketgan , maʼlum muddatda takrorlanib turuvchi hatti-harakat, koʻpchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidasi koʻnikmasidir. Masalan kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qoʻyish, mehmonlarga alohida hurmat koʻrsatish, bayram arafasida qariyalar, kasal, ojiz qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qoʻni-qoʻshnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar oʻzbek xalqida xos yaxshi odatlar hisoblanadi.”Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud, u maʼlum sharoit taʼsirida vujudga kelib, kishining feʼl-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik oʻz-oʻzidan beixtiyor bajariladigan harakat maʼnosini bildiradi va muayyan bir kishining turmush tarzi, hatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon boʻladi. [7] (94- b).

Marosim inson turmushida muhim hodisalar sodir boʻlganida vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng azaliy voqealarni ( masalan, tugʻilish, uylanish, oʻlim kabi) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Oʻzbek oilalarida yosh avlodni tarbiyalash uchun oʻziga xos maʼnaviy zamin, tizim sifatida xizmat etadigan-chaqaloq tugʻilganidan to ulgʻayib, yangi oila koʻrgungacha boʻlgan hayotiy muhim voqealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi (chaqaloq dunyoga kelishi, ism qoʻyish, chilla, beshik toʻy, soch olar toʻyi, sunnat toʻy, moʻchal toʻy, nikoh toʻy kabilar ) vujudga kelgan. “Marosimlar xalq madaniyatida jamlangan barcha jihatlarni qamrab olgan,-deb yozadi R.S.Abdullayev,-ular maʼlum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tarixiy hayotini aks ettiradi, maʼlum maʼnoda millatning maʼnaviy dunyosini shakllantiradi. Marosim-bu faqat musiqa, raqs, xalqoʻyinlari jamlangan tantanali tadbiryoki xursandchilik emas, balki boy anʼanaga ega boʻlgan xalqning tarixi va madaniyatini aks etib turgan koʻzgudir. Marosim avlodlarning muhim ijtimoiy aloqasi, ularning dunyo haqidagi tasavvurini aks ettirib, etnomadaniyat anʼanasi sifatida saqlanib qoladi”. [8] (28-29 b).

“Marosim” bevosita kishilarning tabiat hodisalariga, iltimoiy voqelikka boʻlgan muayyan munosabati asosida yotuvchi turli-tuman qarash va tasavvurlari tufayli tugʻilgan”. Shu tufayli marosimning inson hayotida katta oʻrin tutishi, barqarorligini

ta`minlovchi muhim omillardan biri uning ijtimoiy funksiyani o`tashi bilan bog`liqdir. [9] (10-11b).

Xulosa qilib aytish mumkinki o`zbek xalqining azalaiy qadriyatlari an`ana, odat va marosimlar hech qachon o`z qadr qimmatini yuqotmaydi. Chunki hayotimizni bularsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Har bir an`ana, odat va marosimlarimizning zamirida tarbiya va avlodlarimizdan bizgacha etib kelgan bebaho, oltingan qimmat meros yotadi. Bu merosni yoshlarga o`rgatish, targ`ib etish barchamizning muqaddas burchimizdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. Odatlar, qadriyatlar. Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyari, 1997, -538b.
2. Habibullo Gofur. Xalq o`yinlari, qo`shiqlari va an`analariga bir nazar. Toshkent, Kamalak, 1992, -3 bet.
3. Usmon Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. Toshkent kartografiya fabrikasi. 2003, -92b
4. AL Overview@Wiki Wand.
5. ] T. Jovliyev. An`nalar-hayot sabog`i. Toshken, O`zbekiston, 1992, -87b.
6. Usmon Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. Toshkent kartografiya fabrikasi. 2003
7. Usmon Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. Toshkent kartografiya fabrikasi. 2003
8. Abdullayev R.S. Boysun tarixiy va madaniy qo`riqxonona. \San`at. 2004. №1, 28-29 b.
9. Sarimsoqov B. O`zbek marosim folklori. -T.; Fan, 1986, 10-11bet.